

**MAHALLA INSTITUTLARINING TASHKILY-IQTISODIY  
MEXANIZMLARINING NAZARIY JIHLTLARI**

*Otabek Rasulov Salimovich*

*Farg'ona politexnika instituti*

*mustaqil izlanuvchisi*

**E-mail:** [otabekrasulov8400@gmail.com](mailto:otabekrasulov8400@gmail.com)

**Tel:** +99890 628 00 71

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ko'pchilik mashinalarning asosini tashkil etilishi, ko'pgina asboblar, apparatlar va texnika qurilmalarida qo'llanilishi, bozor mexanizmi, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy mexanizm iboralari iqtisodiy fanlarda ko'proq uchrashi haqida muallif tomonidan fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** mahalla, institut, bozor mexanizmi, xo'jalik mexanizmi, iqtisodiy mexanizmi, boshqaruv xizmatlari.

**Абстрактный.** В этой статье автор комментирует основу большинства машин, их использование во многих инструментах, устройствах и технических устройствах, а также тот факт, что термины рыночный механизм, экономический механизм и экономический механизм более распространены в экономических науках.

**Ключевые слова:** соседство, институт, рыночный механизм, экономический механизм, экономический механизм, управленческие услуги.

**Abstract.** In this article, the author discusses the basis of most machines, their use in many devices, apparatuses and technical devices, and the fact that the terms market mechanism, economic mechanism and economic mechanism are more common in economic sciences.

**Key words:** mahalla, institute, market mechanism, economic mechanism, economic mechanism, management services.

**Kirish.** Tadqiqot jarayonida aniqlangan mahalla institutlarining tashkiliy-

iqtisodiy mexanizmi fuqarolarni samarali faollashtirish va mahalla fuqarolar yig'inlarining aholi oldidagi e'tirofini o'sishiga sabab bo'ladi. Bu o'rinda dastlab "mexanizm" atamasiga aniqlik kiritib olishga to'g'ri keladi.

Aniq fanlar nuqtayi nazaridan mexanizm (yun. mechane — qurol, inshoot) — bir yoki bir necha jismning harakatini boshqa jismlarning ma'lum harakatiga aylantirib beradigan qurilma. Ko'pchilik mashinalarning asosini tashkil etadi, ko'pgina asboblari, apparatlar va texnika qurilmalarida qo'llaniladi<sup>1</sup> kabi ta'riflanadi.

Mexanizm haqida so'z yuritganda, bozor mexanizmi, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy mexanizm iboralari iqtisodiy fanlarda ko'proq uchraydi.

Bu sohada olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, bozor mexanizmi bozor tizimiga xos bo'lgan, bir-birini taqozo etuvchi va birgalikda amal qiluvchi vositalardir. Bular jumlasiga talab, taklif, narx, bozor konyunkturasi, pul, foyda, zarar, foiz, iqtisodiy majburiyat, raqobat kabilar kiradi<sup>2</sup>. Ta'rifga ko'ra, bozor mexanizmi uning elementlaridan tashkil topgan bo'lib, bir paytning o'zida bozorning iqtisodiy kategoriya sifatida amal qilishiga turli yo'llar orqali ta'sir etuvchi omillarni o'zida mujassamlashtirgan.

Korxonada xo'jalik mexanizmi — xo'jalik yuritishning tamoyil, usul va shakllari ko'lamini bo'lib, ular yordamida ishlab chiqarish jarayoni va mehnat jamoasini boshqarish, mehnat jamoasini boshqarish munosabatlari tizimi bilan asosiy ishlab chiqarish vositalari o'rtasida aloqa va o'zaro ta'sir amalga oshiriladi<sup>3</sup>. Bu ta'rifda ham xo'jalik mexanizmi xo'jalik yuritishga ta'sir etuvchi omillar ekanligi aytib o'tilgan. Rossiyalik iqtisodchi olimlar esa bu sohada o'zgacharoq qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan ta'riflarni keltirib o'tgan. Mexanizm tashkilot tizimi, tashuvchisi va amalga oshiruvchisi, uning jarayonidir. Tashkilot mexanizm funksiyasi, harakatining natijasidir<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд. Конимех-Мирзокуш. Тахрир хайъати: М. Аминов, Т. Даминов, Т. Долимов ва б. — Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003. — 618-619 б.

<sup>2</sup> Ўлмасов А., Ваҳобов А.В. Иқтисодий назарияси: Дарелик. — Т.: Шарк, 2006. Б. 275.

<sup>3</sup> Зайнутдинов Ш.Н. ва бошқ. Менежмент асослари. — Т.: Молия, 2001.

<sup>4</sup> Букреев, А.М. Экономический механизм антикризисного управления предприятием [Текст]: Монография / А.М. Букреев, К.И. Кремер, О.Е. Дударев. — Воронеж: Научная книга, 2007. С. 49

Y. Osipov xo'jalik mexanizmi deganda, o'ziga xos xo'jalik yuritish mexanizmi va xarakteri jamiyatni barcha xo'jalik institutlari, xo'jalik yurituvchi subektlarning tartibga solish faoliyati jamiyatning xo'jalik yurituvchi subektlar tizimini tushunadi<sup>5</sup>.

Xo'jalikning iqtisodiy mexanizmi – iqtisodiy munosabatlar tizimi, ijtimoiy ishlab chiqarishni (xizmat ko'rsatishni) rejali boshqarish, yuksak pirovard natijalarga erishishda foydalanuvchi vositalar, usullar, tamoyil va shakllar yig'indisi<sup>6</sup>.

Iqtisodiy mexanizm rejani bajarishda iqtisodiy dastak va rag'batlarning o'zaro ta'sirini ta'minlovchi markazlashtirilgan rejali boshqarish vositasidir<sup>7</sup>.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, iqtisodchi olimlarning mexanizm haqidagi turli qarashlari fikrlar o'rtasida ziddiyat borligini ko'rsatadi. Keltirilgan ta'riflarni jamlagan holda A.Bukreyev rossiyalik iqtisodchi olimlarda mexanizm atamasiga ikki xil qarash mavjudligi haqida aytadi<sup>8</sup>. Bir guruh olimlar: iqtisodiy mexanizm ishchi-xizmatchilar, mutaxassis va boshqa ishlovchilarning yuqori ishlab chiqarish mehnatini ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiy tizim rag'batlari va boshqaruv uslublarini o'zida aks ettiradi deb hisoblashsa, qolganlari iqtisodiy mexanizm xo'jalik yuritish uslub va shakllarining ko'p darajali tizimini yaxlitlashdir deb qaraydilar va o'zi ham ikkinchi ta'rifga qo'shiladi.

Fikrimizcha, mexanizm atamasiga biror-bir faoliyatni harakatga keltiruvchi kuch, sabab, omil va usul sifatida qarash kerak. Mahalla institutlarida mexanizm uchta – aholi demografiyasi, ijtimoiy ko'rsatkichlari va boshqarish organining tuzilishini birgalikdagi harakati asosida vujudga keladi. Uni fuqarolar yig'inini o'zi bilan bog'lash bir tomonlama xususiyatga ega.

Mahalla fuqarolar yig'inini boshqarishning iqtisodiy mexanizmi – bu boshqaruv maqsadlariga erishish uchun boshqaruv subekti tomonidan qo'llaniladigan

---

<sup>5</sup> Осипов Ю.М. Основы теории хозяйственного механизма / Ю.М. Осипов. – М.: МГУ, 1994. С. 36.


<sup>6</sup> Қосимов Ғ.М. Транспорт корхоналарида менежмент: олий ўқув юртлирида тармоқ менежменти мутахассислиги учун дарслик: – Т.: Ўзбекистон, 2001. – Б. 173.

<sup>7</sup> Маскаленко В.П., Шапунова О.В. Развитие финансово-экономического механизма на предприятиях: Курс лекций. – Мрия I, 2003. – С 21.

<sup>8</sup> Букреев, А.М. Экономический механизм антикризисного управления предприятием [Текст]: Монография / А.М. Букреев, К.И. Кремер, О.Е. Дударев. – Воронеж: Научная книга, 2007. – 52-54 с.

boshqaruv jarayoniga ta'sir etuvchi usullar, vositalar, dastaklar yig'indisidir<sup>9</sup>.

1-rasm



Mahalla fuqarolar yig'ida boshqaruvning samarali amal qilishi u asoslangan boshqaruv mexanizmining tashkil etilganlik darajasiga bog'liq. Mahalla fuqarolar yig'ida tashkil etilgan boshqaruv mexanizmini iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy va informatsion turlarga bo'lib, quyidagi rasm orqali tahlil qilish mumkin (1-rasm).

### **Xulosa va takliflar**

1. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish tizimining baholashni o'tkazishga ichki tashkiliy tuzilmaning tayyor emasligi, kasbiy madaniyat, motivatsiya va javobgarlikning rivojlanish darajasi yetarli emasligi bu baholash amaliyotini mavhumlashtiradi va uning real samaradorligini aniqlashda qiyinchilik tug'diradi.

2. Ayrim ko'rsatkichlar va indikatorlar, ayniqsa, ekspert va jamoatchilik baholashlarini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan mezonlarni o'lchash murakkabligi va bir xil xarakterda emasligi, shuningdek, mahalla institutlari ijtimoiy-iqtisodiy

9. Маманазаров О.Ш. Бозор шароитида бошқаришнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш («Муборакнефтваз» унитар шўъба корхонаси мисолида): Дис. ...икт. фанлари номзоди. – Т.: ТДИУ, 2009. – Б. 16.

ko'rsatkichlarining yagona obektiv axborot bazasining mavjud emasligi, ushbu hisob-kitoblarni murakkablashtiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд. Конимех-Мирзокуш. Тахрир ҳайъати: М. Аминов, Т. Даминов, Т. Долимов ва б. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003. – 618-619 б.
2. Ўлмасов А., Ваҳобов А.В. Иқтисодиёт назарияси: Дарслик. – Т.: Шарқ, 2006. Б. 275.
3. Зайнутдинов Ш.Н. ва бошқ. Менежмент асослари. – Т.: Молия, 2001.
4. Букреев, А.М. Экономический механизм антикризисного управления предприятием [Текст]: Монография / А.М. Букреев, К.И. Кремер, О.Е. Дударев. – Воронеж: Научная книга, 2007. С. 49
5. Осипов Ю.М. Основы теории хозяйственного механизма / Ю.М. Осипов. – М.: МГУ, 1994. С. 36.
6. Қосимов Ғ.М. Транспорт корхоналарида менежмент: олий ўқув юртларида тармоқ менежменти мутахассислиги учун дарслик: – Т.: Ўзбекистон, 2001. – Б. 173.
7. Маскаленко В.П., Шапунова О.В. Развитие финансово-экономического механизма на предприятиями: Курс лекций. – Мрия I, 2003. – С 21.
8. Букреев, А.М. Экономический механизм антикризисного управления предприятием [Текст]: Монография / А.М. Букреев, К.И. Кремер, О.Е. Дударев. – Воронеж: Научная книга, 2007. – 52-54 с.
9. Маманазаров О.Ш. Бозор шароитида бошқаришнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш («Муборакнефтваз» унитар шўъба корхонаси мисолида): Дис. ...икт. фанлари номзоди. – Т.: ТДИУ, 2009. \_ Б. 16.